
XIRMONGA BARAKA

- *□Rishton tumanidagi "Ruso'zbekteks" paxtachilik klasteri qoshidagi paxta tozalash zavodida bu yilgi paxta hosilining yig'im-terim mavsumi boshlanganidan darak beruvchi shukronalik tadbiri bo'lib o'tdi.
- *□Avvalo, fermer xo'jaligi a'zolari, MMTPdagi agronom, mexanizator va suvchilar, usta dehqonlar, nuroniylar to'planishdi. Fermer xo'jaligi tomonidan qo'y so'yib, ziyofat uyushtirildi.
- *□Oqsaqollar va dehqonlar birgalikda Qur'on tilovat qilib, yurtimizdagi tinchlik va barqarorlik uchun, mo'l-ko'lchilik va baraka uchun Yaratganga shukrona aytili.
- *□Tuman hokimi va sektor rahbarlari tadbirda ishtirok etishib, boshlanayotgan paxta yig'im-terim mavsumiga baraka, dala mehnatkashlariga salomatlik va kuch-quvvat tilashdi.
- *□Jahon bozorida O'zbek paxtasiga talab kuchaygani, xarid narxlarining ortganligi, o'z navbatida fermerlarning manfaatdorligi ortishi, terimda qatnashayotgan aholi daromadlarining yuqori bo'lishi haqida gapirib o'tishdi.
- *□Etishtirilgan paxta xosilini tez va sifatli terib olinishi uchun amalga oshirilgan tashkiliy jarayon, terim otryadlarining afzalliklari to'g'risida ma'lumot berildi.

2022-09-06 06:08:29